

O‘XSHATISHLAR LINGVOMADANIY BIRLIKLAR SIFATIDA (O‘tkir Hoshimovning “Ajdarining tavbasi” asari misolida)

Abdullayeva Ozoda

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

301-guruh talabasi

ozodaa576@gmail.com.

Tel:992230310

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘xshatishlarning lingvokulturologik mohiyati, ularning inson tafakkuridagi kognitiv asoslari hamda badiiy nutqdagi lingvopoetik funksiyalari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida o‘xshatish nazariyasining shakllanishi, individual-muallif va turg‘un o‘xshatishlarning o‘ziga xos xususiyatlari badiiy matnlar misolida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, lingvokulturologiya, kognitiv tafakkur, lingvopoetika, turg‘un o‘xshatish, individual o‘xshatish, obrazlilik.*

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda inson tafakkuri va til o‘rtasidagi uzviy aloqani o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson borliqni anglash jarayonida qiyoslash va taqqoslash kabi mantiqiy operatsiyalarga tayanadi. Ushbu jarayon ilmiy terminologiyada analogiya deb yuritilib, u bilish faoliyatining universal mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur mantiqiy jarayon badiiy tafakkurda transformatsiyaga uchrab, obrazli ifoda vositasi – o‘xshatish shaklida namoyon bo‘ladi. O‘xshatishlar nafaqat lingvistik birlik, balki muayyan etnosning madaniy xotirasi, mental modeli va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi lingvokulturologik fenomen sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Eramizdan oldingi IV asrda tuzilgan Panini grammatikasidan boshlab qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o‘xshatishlar poetik figura sifatida o‘rganilgan va o‘xshatishning muntazam to‘rt unsur dan tarkib topishi ta’kidlangan, “ya’ni: 1) o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt; 2) unga o‘xshash bo‘luvchi narsa yoki obyekt; 3) o‘xshatish belgisi yoki o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi”⁶¹ Shunga asosan Professor N.Mahmudov o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni ham to‘rt unsurga ajratib, ularni o‘xshatish subyekt, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaydi. Bizningcha ham ushbu fikr ilmiy haqiqatni ifoda etadi. “...o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli

⁶¹ Невелова С.Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпјоса.Эпитет и сравнение.–М.: Наука, 1979. –С.38.



sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi".⁶²

O'xshatishning lingvistik tabiati, uning badiiy matnlardagi

vazifasi o'zbek tilshunosligida o'rganilgan va bu tadqiqotlar davom etmoqda. M.Mukarramovning «O'zbek tilida o'xshatish» (Toshkent, 1976), R.Qo'ng'urovning «O'zbek tili stilistikasidan ocherklar» (Samarqand, 1975), «O'zbek tilining tasviriy vositalari» (Toshkent, 1977), S.Karimovning «Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari» (Samarqand, 1994) asarlari shular jumlasidandir. O'xshatish nazariyasiga oid eng keyingi mukammal tadqiqot prof. N.Mahmudov qalamiga mansubdir. U o'zining «O'xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli» maqolasida bu tasviriy vositaning yuzaga kelish shart-sharoitlari, ularning turlari, badiiy adabiyot valingvopoetikada tutgan o'rni haqida muhim qarashlarni bayon etgan.⁶³

Maqolada taqqoslashning ikki turi farqlangan: «Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o'rtasidagi farqni ko'rsatish maqsadida qiyoslangan bo'lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, yer toshdan qattiq), qiyoslash o'xshatish maqsadini ko'zda tutganda esa o'xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, yer toshday qattiq)» O'xshatishning badiiy asar tilidagi ishtiroki yana nimalarda ko'rinadi? Bu, eng avvalo, uning yuzaga kelishiga xizmat qiladigan til vositalarining realligi va ko'pligida. Ularni tilshunoslar ikkiga bo'ladilar: leksik va grammatik vositalar. Leksik vositalar: kabi, singari, qadar, yanglig', bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go'yo, teng, o'xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo'lmoq, bir, aynan, o'zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar.

Grammatik vositalar: -day (-dek) -dak -(tak) -dag' (-dog') -dayin,

-dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, - chasiga) kabilar. Badiiy uslubda ushbu vositalarning hammasidan keng jabhada foydalanish mumkinligi ham o'ziga xoslikdir. Hech qaysi funksional uslubda o'xshatishdan bu darajada mahsuldor foydalanilmaydi. Boshqa uslublarda ular predmet va hodisalarni shunchaki qiyoslab, o'xshatish subyektining ma'nosini konkretlashtirish uchun xizmat qilsa, badiiy uslubda shu bilan bab-baravar, badiiy-estetik vazifani ham bajaradi.

⁶² Махмудов Н, Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати.– Тошкент:Маънавият,2013.-Б.5.

⁶³ Махмудов Н. ва Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент:

Маънавият, 2013, -Б.3-18.





NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘xshatishlar lingvomadaniy birlik sifatida nafaqat obrazli ifoda vositasi, balki muayyan xalqning madaniy tajribasi, dunyoqarashi va milliy mentalitetini aks ettiruvchi semantik-kognitiv struktura hisoblanadi. Ular orqali xalq ongida shakllangan stereotiplar, qadriyatlar va baholash mezonlari namoyon bo‘ladi.

Buni O‘tkir Hoshimovning “Ajdarining tavbasi” asaridan olingan misollar asosida yaqqol ko‘rish mumkin:

1. - Xonim, - dedi sirli qilib. - Qarang bahor ham keldi...

- Shunaqami? - Malikaxon ipdek qoshini chimirdi. [O‘tkir Hoshimov. Ajdarining tavbasi,370]. Mazkur o‘xshatishda “ip” etaloni noziklik, ingichkalik va nafislik semalarini ifodalaydi. O‘zbek lingvomadaniyatida ayol go‘zalligi ko‘pincha noziklik va latofat bilan bog‘lanadi. Shu sababli “ipdek” o‘xshatishi estetik idealni aks ettiruvchi turg‘un obraz hisoblanadi.

2. U og‘zini ochishga ulgurmay garaj ilgagiga otning
kallasidek qulfni solib, sharaq-shuruq qulfladim-da,
chorrahadagi do‘konga qarab chopdim. [O‘tkir Hoshimov. Ajdarining tavbasi,236]. Bu o‘xshatishda “ot” obrazi milliy madaniyatda muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining tarixiy turmush tarzida ot kuch, qudrat va yiriklik ramzi sifatida qabul qilingan. Shu bois “otning kallasi” orqali kattalik va og‘irlik semalari kuchaytiriladi.

3. It quvgan soqovdek oynaband eshik tomon chopdim.
(Harna oldinroq borganim.). [O‘tkir Hoshimov. Ajdarining tavbasi,247]. Bu individual o‘xshatishda ikki madaniy obraz mujassam:

“it quvish” – xavf, tahdid

“soqov” – ojizlik, himoyasizlik

Bu kombinatsiya orqali kuchli vahima, shoshilish va nazoratsiz harakat ifodalanadi. Bu xalq tafakkuridagi salbiy holatlarni ifodalovchi murakkab lingvomadaniy modeldir.

4. - Janobga... - hamrohimga imo qildi. - Ikki shisha
pivo, ikki bokal vino!

(Qoyilman! Inglizchani suvdek bilarkan.)

- Moment ser... - Xonim ta‘zim bajo aylab, zipillab
ketdi. [O‘tkir Hoshimov. Ajdarining tavbasi,249]. “Suv” obrazi o‘zbek madaniyatida tabiiylik, erkinlik va to‘siqsizlik ramzi hisoblanadi. Shu sababli “suvdek bilmoq” iborasi bilimning oson va mukammal egallanganini bildiradi.

5. - No! No! - dedim vahimaga tushib. - Ay xev no ten
dollar. Menda ten dollar yo‘q!

Shovqin-suronni eshitib, ichkaridan sumakdek naynov
yigit chiqdi. [O‘tkir Hoshimov. Ajdarining tavbasi,253]. Bu o‘xshatishda “sumak” — beshik anjomi, ya‘ni ingichka, nozik, elastik jismlar ramzi sifatida ishlatilgan. Shu sababli yigitning ozg‘in, ingichka va nimjonligi, harakatining nozikligi, hatto estetik



jihaddan latofati ifodalanadi. Bu o‘xshatish xalq tafakkurida noziklik va nafislikni anglatuvchi lingvomadaniy birlik sifatida xizmat qiladi.

6. Lekin... Bunaqa

odam maktabda ishlasa... Yoshlar tarbiyasiga... Meniyam o‘ylang! Tobutkashmiz... Ko‘zdek qo‘shnimiz. Mendayam bola-chaqa bor. [O‘tkir Hoshimov. Ajdarning tavbasi,257].

Bu yerda o‘xshatish elementi “ko‘z” hisoblanadi. Ko‘z inson tanasidagi bir-biriga yaqin joylashgan a‘zoldardan biri. Bu o‘xshatish orqali milliy mentalitetdagi qo‘shni bilan yaqin munosabatlar va mehr-oqibat tasvirlangan.

7. Usmon aka semizgina buzoqboshi ko‘rib qolgan

xo‘rozdek boshini goh u yoqqa, goh bu yoqqa tashlab,

menga uzoq tikilib turdi-da, negadir iljaydi. [O‘tkir Hoshimov. Ajdarning tavbasi,294]. Xo‘rozning boshini u yoqqa, bu yoqqa tashlashi orqali hayvonning hushyorligi va diqqatini ifodalaydi. Shu orqali Usmon akaning kuzatuvchanligi vizual tarzda tasvirlangan.

8. O‘zing bilasan, ovqatdan keyin sigaret moydek ketadi! [O‘tkir Hoshimov. Ajdarning tavbasi,282]. Moyning suyuqligi va tezligi sigaretning tez va silliq o‘tishini ifodalaydi. O‘xshatish oddiy harakatni aniq vizualizatsiya qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘xshatishlar inson tafakkurining mahsuli sifatida til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni namoyon etadi. Ular orqali borliq obrazli tarzda ifodalanadi, nutqning ta’sirchanligi oshadi. Ayniqsa, turg‘un o‘xshatishlar milliy ong va madaniyatni o‘rganishda muhim lingvomadaniy birlik sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O‘. “Ajdard”ning tavbasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B. 423.
2. Maxmaraimova Sh.T. Lingvokulturologiya. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2017. –B. 163.
3. Nurmuhammedov Yusuf. Frazologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. – Samarqand, 2021. –B. 134.
4. Usmonova Shoir. Lingvokulturologiya.-Toshkent,2019. –B. 245.
5. Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmonova, Iqbol O‘razova, Kamola Risiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 635.
6. Маҳмудов Н. ва Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.

